ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 15.06.2025 · Accepted: 14.08.2025 · Published: 31.08.2025
DOI: https://doi.org/10.64681/6k1r0r57

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(4), 2025
www.jnculture.uz

Maqom san’ati kompozitor-talabalarni tarbiyalashda estetik va ijodiy asos sifatida

(The Art of Maqom as an Aesthetic and Creative Foundation in the Education of Student-Composers)

Dilnoz Kamilova (Zokirova)

The Department of Composition and Orchestration,
The State Conservatory of Uzbekistan,
100027, Batir Zakirov, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: dilkazok@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo’lajak kompozitorlarni tayyorlashda maqom san’atining estetik va metodik ahamiyati tahlil qilinadi. Maqomlar o‘zbek musiqa merosining eng chuqur va ko‘p qatlamli shakllaridan biri sifatida talabalar musiqiy tafakkurining shakllanishida, ularning ijodiy tashabbusi, intonatsion xotirasi va individual uslubining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Maqolada maqom materialini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik yondashuvlari — shakl, lad tuzilmasi, metroritmik qonuniyatlar va faktura asosidagi kompozitsion tahlil orqali, shuningdek, transkripsiyalar, improvizatsion variatsiyalar va mavzuni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar orqali ko‘rib chiqiladi.

Amaliy misol sifatida maqom elementlari asosida yaratilgan talaba-kompozitor Yo‘ldorbek Surabovning “*Garduni navo*” asari tahlil qilinadi. Unda maqomning intonatsion tilini zamonaviy kompozitorlik ifodasi uchun konstruktsion va obrazli manba sifatida namoyon etadi. Maqolada maqomning nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki zamonaviy san’at ta’limi sharoitida dolzarb estetik resurs sifatidagi ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: maqom san’ati, kompozitorlik ta’limi, estetik tarbiya, milliy musiqa, musiqiy tafakkur, kompozitsion tahlil, ijodiy salohiyat.

Abstract

This article examines the aesthetic and methodological significance of the art of maqom in the system of professional training for future composers. As one of the most profound and multi-layered forms of Uzbek musical heritage, maqom plays a crucial role in shaping students’ artistic thinking, developing their creative initiative, intonational memory, and individual style. Particular attention is given to pedagogical approaches to integrating maqom into the educational process through

compositional analysis of form, modal structure, metrorhythmic patterns, and texture, as well as through creative assignments such as transcriptions, improvisational variations, and thematic development exercises.

As a practical case study, the article analyzes *Garduni navo*, a student composition by Yodgorbek Surabov, which is based on maqom elements. The analysis illustrates how maqom intonational language can serve as both a constructive and expressive foundation for contemporary compositional expression. The article emphasizes that maqom is not only a cultural legacy but also a relevant aesthetic resource within the context of modern artistic education.

Keywords: maqom art, composition education, aesthetic formation, national music, musical thinking, compositional analysis, creative potential.

Аннотация

В данной статье анализируется эстетическое и методическое значение искусства макома в системе профессиональной подготовки будущих композиторов. Маком, как одна из наиболее глубоких и многоуровневых форм узбекского музыкального наследия, выполняет важную функцию в формировании художественного мышления студентов, развитии их творческой инициативы, интонационной памяти и индивидуального стиля. Особое внимание уделено педагогическим подходам к интеграции макомного материала в образовательный процесс: через композиционный анализ формы, ладовой структуры, ритмико-метрических закономерностей и фактуры, а также посредством творческих заданий — транскрипций, импровизационных вариаций и упражнений на тематическое развитие.

В качестве практического примера рассматривается сочинение студента-композитора Йодгорбека Сурабова — *Garduni navo*, созданное на основе элементов макома. Анализ демонстрирует возможности макомной интонационности как конструктивной и выразительной базы для современного композиторского высказывания. В статье подчеркивается значимость макома не только как культурного наследия, но и как актуального эстетического ресурса в условиях современного художественного образования.

Ключевые слова: искусство макома, композиторское образование, эстетическое воспитание, национальная музыка, музыкальное мышление, композиционный анализ, творческий потенциал.

O‘zbekiston musiqiy madaniyatining tarixiy taraqqiyotida maqom[1] san’ati alohida o‘rin tutadi. Maqom musulmon Sharqi musiqasidagi asosiy tushunchalardan

[1] Maqom arab tilida — joy, makon, o‘rin ma’nolarni anglatadi [3].

biri hisoblanadi. Sharq musiqa nazariyasining rivojlanishi jarayonida maqomning ma’nosi kengayib, muayyan lad tuzilmasi, tizimi, shakl, janr, musiqiy yo‘nalishlar va ijro uslublarini o‘z ichiga oluvchi tushunchaga aylangan [3]. U asrlar davomida shakllangan musiqiy tafakkur, estetik qarashlar va ma’naviy qadriyatlarning badiiy jamlanmasidir. Bugungi kunda zamonaviy kompozitorlik ta’limida talabalarni milliy musiqiy meros asosida tarbiyalash, ularda mustahkam estetik dunyoqarash va mustaqil ijodiy tafakkur shakllantirish zaruriyati kundan-kunga dolzarblashmoqda. Maqom san’ati shu ma’noda nafaqat musiqiy meros, balki ta’limiy estetik vosita sifatida ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Kompozitorlik ijodiyoti nafaqat texnik bilimlarga, balki chuqur musiqiy tafakkurga, milliy-estetik sezgi va badiiy qarorga tayangan holda shakllanadi. Maqom asarlarining murakkab shakl va lad tuzilmalari, ritmik tizimi va improvizatsion xususiyatlari kompozitor talabalar uchun boy tahliliy va ijodiy manba vazifasini bajaradi.

Maqom san’ati orqali kompozitor talaba milliy ohanglar, modal tizimlar, ritmik andozalar, shakliy rivojlanish kabi asosiy kompozitsion elementlarni o‘zlashtiradi. Natijada, u zamonaviy musiqiy til va uslublarda ham o‘z milliy-estetik g‘oyalarini ifodalashga intiladi.

Estetik tarbiya musiqiy ta’limning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ayniqsa kompozitorlar tayyorlashda u alohida e’tibor talab etadi. Maqom san’atining har bir asari, uning g‘oyaviy va estetik yuki, ichki ruhiy dramatizmi kompozitor talabani chuqur mushohada qilishga, musiqiy obraz yaratish qobiliyatini rivojlantirishga undaydi. Shu orqali talaba nafaqat an’anaviy musiqani tushunadi, balki o‘z musiqiy “men”ini, milliy o‘zligini topadi.

Maqom san’atini kompozitorlik ta’limiga integratsiya qilishda muayyan metodik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan:

• Tahliliy yondashuv – maqom asarlarini shakl, lad, ritm, va faktura jihatidan tahlil qilish orqali talabada musiqiy tafakkur shakllantiriladi;

• Transkripsiya va variatsion ishlanmalar – talabaga maqom asosida yangi musiqa g‘oyalari ishlab chiqishga imkon yaratadi;

• Kompozitsion mashqlar – maqom elementlaridan foydalangan holda yangi musiqiy shakllar yaratish orqali ijodiy salohiyat rag‘batlantiriladi.

Ushbu yondashuvlar orqali maqomni o‘rganish jarayoni passiv eslab qolish emas, balki faol musiqiy tafakkur va mustaqil ijodiy izlanish maydoniga aylanadi.

Shu tariqa, maqom san’atining estetik va ijodiy tamoyillari kompozitorlik ta’limida nafaqat umumiy musiqiy tafakkurni shakllantirishda, balki bevosita amaliy kompozitsiya jarayonida ham muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, talaba-kompozitorlar ijodida maqomga xos modal, ritmik va shakliy unsurlarni zamonaviy kompozitsion uslublar bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi musiqiy yechimlar yuzaga chiqmoqda. Quyida tahlil qilinadigan talaba-kompozitor ijod namunasi aynan shu jarayonning amaliy ifodasi sifatida qaralib, unda maqom elementlarining qanday estetik va strukturaviy o‘rin tutgani tahliliy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi 4-bosqich talabasi Yodgorbek Surabov[2] (katta o‘qituvchi Sherzod Sobirov sinfi) Torli kvartet uchun pyesa “Garduni navo” maqom asosida va “sho‘ba” shaklida yozilgan.


Garduni navo Shashmaqom[3]ning cholg‘u bo‘limiga mansub [9]. Navo maqomining mushkilot bo‘limida Tasnifi Navo, Tarje’i Navo, Garduni Navo, Nag‘mai Orazi Navo, Muxammasi Navo, Muxammasi Bayot, Muxammasi Husayniy, Saqili Navo kabi cholg‘u asarlari mavjud. Kitoblarda barcha

[2] Yodgorbek Surabov Fayzulla o‘g’li 2004-yil 20-iyunda Toshkent viloyati Bo‘ka tumanida tavallud topgan. 19-Bolalar musiqa va san’at maktabida 2012-yil fortepiano yo‘nalishida 2013-2018-yillarda doira sinfida tahsil olgan. 2019-yil Bekobod ixtisoslashtirilgan san’at maktabi “Xalq cholg’ulari” yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirdi. 2021-yilda BISM ni a’lo baholarga tamomlab, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Bastakorlik san’ati” ixtisosligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi. Xalqaro va respublika tanlovlarida qatnashib faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda.


[3] Shashmaqom — bu oltita maqomdan tashkil topgan yirik musiqiy tsikl bo‘lib, ular quyidagilar: **Rost**, **Navo**, **Buzruk**, **Dugoh**, **Segoh** va **Iroq**. Bu yerda “maqom” tushunchasi ostida o‘z ichiga uchta asosiy bo‘limni olgan musiqiy tsikl nazarda tutiladi. Ushbu bo‘limlar quyidagilardan iborat: biri **faqat cholg‘u asboblari ijrosidagi** — **Mushkilot**, va ikkitasi **vokal hamda cholg‘u bilan ijro etiladigan** — **Nasr** va **Savt** bo‘limlaridir [3], [4].

maqomlardagi asarlar nomlari uning usuli va parda tizimidan habar beruvchi atama hisoblanadi deyiladi. Masalan Gardun ma'lum usulni, Navo esa maqom ohangini beruvchi pardani anglatar ekan. Gardun - osmon gardishi, doira, qismat kabi ma'nolarni anglatib, maqom ijrochiligida yuqorida aytilgandek ma'lum doira usulining nomidir [4, 137b.].


Asarning kirish qismi mavzuni eslatuvchi motivlar yangrashi bilan boshlanadi, ushbu kirish qismida gardun usuli violonchell cholg'usining dekasiga urish orqali ifoda etiladi.



1. Daromad[4] – mavzuni yetakchisi sifatida skripka I cholg'usi ijro etadi, kuy yo'li mikroxramatik tonlardan tashkil topgan bo'lib o'zida nolalarni aks ettiradi.




Yetakchi kuy yo'li fonida skripka II va alt cholg'ulari garmonik asosni ta'minlovchi figuratsion qatlamni shakllantirib, kompozitsion tuzilmaning vertikal uyg'unligi muhim tekstura elementlari sifatida namoyon bo'ladi.



Violonchell cholg'usi esa dutor cholg'usini eslatuvchi effektini o'zida namoyon etadi ya'ni garmonik va ritmik qatlamni qo'llari orqali dutor sozining ijrochilik an'analariga xos shtrixlar asnosida bayon qiladi:

[4] Daromad - muqaddima, debocha, umuman asarning bosh qismi, bo'lagi; maqom sho'basi, shuningdek, uning shakliga mutanosib cholg'u va ashula asarlarining 1-boshlangich tuzilmasi, xati. Sarxat deb ham yuritiladi [3].



Ushbu effektlardan asosiy maqsad o‘zbek milliy koloritini yevropa cholg‘ularga olib kirgan holda ijro etishdir.


2. Miyonxat[5] – asosiy pardadan kvinta intervali yuqorida boshlanadi. Yetakchi sozandalik endilikda skripka II cholg‘usiga o‘tadi, skripka I, alt va violonchell chog‘ulari asosiy mavzuga kontropunktlashadi. Usul ham bu yerda chetda qolmagan skripka I ritmik-garmonik ko‘rinishda gardun usulini ijro qila boshlaydi, alt cholg‘usi ham bir chorakdan so‘ng ushbu usulini ijro etadi. Natijada ritmlarning biroz keskinlashuvi vujudga keladi.

3. Dunasr[6] – bu qismning boshlanishi qisman maqom ansamblini gavdalantiradi, ya’ni akripka II va alt cholg‘ulari usulni “pizzicato” uslubi orqali ijro etadi, skripka I va violonchel cholg‘ulari mavzuni tezis va antitezis ko‘rinishida o‘tkazishadi. So‘ngra violonchellda yuqori oktavada kuy yo‘lini “sul ponticello” uslubi oraqli ijro etadi va yetakchilik violonchell cholg‘usida saqlanib qoladi. Dunasr qismi ekanligini anglab olish juda osondir chunki violonchell bu bas cholg‘usidir, uni yuqorigi oktavalarda ijrosidan yaqqol dunasr qism ekanligi seziladi.

[5] Miyonxat — o‘zbek, tojik, uyg‘ur mumtoz musiqa shakllarining tarkibiy kuy tuzilmasi. Miyonxat sarxat (Daromad, Sarxona)dan keyin keladigan kuy bo‘lagi sifatida gavdalanib, odatda, Dunasrga ulanib boradi. Maqom sho‘’balari Miyonxatlarida musiqa bayoni yangi, yuqoriroq darajaga ko‘tarilib, kuy rivoji o‘rta (asosiyga nisbatan kvarta, kvinta balandligidagi) pardalarda ta’minlanadi [3], [4].

[6] Dunasr (fors, du — ikki va arab, nasr — yordam, g‘alaba) — an’anaviy mumtoz musiqa shakllarining tarkibiy tuzilmasi; kuy rivojini ta’minlovchi vositalardan biri. Dunasr, asosan, maqom yo‘llari, shuningdek, bastakorlik ijodiyotiga molik ashula va cholg‘u namunalarida uchraydi; unda odatda boshlang‘ich kuy tuzilmasi (sarxat yoki daromad) bir oktava balandlikka ko‘chirilib (o‘zgarmay yoki qisman o‘zgargan xolda) takrorlanadi [3], [4].

4. Avj[7] – violonchell cholg‘usida ostinato elemntlari seziladi ya’ni stokkato uslubida quyi registrlarda garmonik ritmlarni ijro qilib jaz elementini o‘zida gavdalantiradi. Skripka I va skripka II cholg‘ulari ritmik-garmonik qatlamni ijro etadi va kuy yo‘lida alt cholg‘usi yetakchilik qiladi. Kuy yo‘liga e’tibor qaratsak mikroxromatik yarimtonlar ya’ni nolalarni qo‘llanganligini guvohi bo‘lamiz:



5. Furovard – ushbu qismda polifonik shakl qo‘llanilgan ya’ni fuga ekspozitsiyasi (murakkab fuga qo‘llanilgan: ikkita asosiy mavzu birinchisi kuy va ikkinchisi esa usul). Bundan maqsad asosiy mavzu yuqori ovozda boshlanib, pastki ovozga harakat qiladi ya’ni tushurimni hosil qiladi. Furovard qismning qoidasi ham shunda iborat.


Fuga ekspozitsiyasining sxemasi quyidagicha:

S	T1	Q.t1	T2	Intermediya	Q.t2
A	Q.t1	T1	Q.t2	Intermediya	T2
T	Q.t2	T2	T1	Intermediya	Q.t1
B	T2	Q.t2	Q.t1	Intermediya	T1

Tonalliklar sxemasi esa quyidagicha: T – D – D – T

Koda qismida go‘yoki maqom ansambli ijrosidek effekt qo‘llaniladi, violonchell kuy yo‘lini dutor effekti orqali va qolgan cholg‘ular esa kuy yo‘lini ijro etishadi.

[7] Avj (arabcha: اوج) – cho‘qqi, baland) – 1) O‘n ikki maqom majmuasidagi ma’lum sho‘ba nomi. 2) Musiqa asarining yuqori pardalardagi cho‘qqisi, kulminatsiya doirasi, ya’ni musiqa asarining eng baland registrdagi davomli kuy tuzilmasi [1], [2].



Xulosa qilib aytganda, maqom san’ati kompozitorlik ta’limining estetik, didaktik va metodik jihatdan tayanch manbalaridan biri bo‘lib, uning o‘rganilishi talabalarni milliy ruhda tarbiyalash, musiqiy tafakkurini boyitish va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Maqom asosida shakllangan kompozitorlik tafakkuri o‘zbek musiqa san’atining zamonaviy taraqqiyotida barqaror milliy poydevor yaratadi. Shu bois, maqom san’atining kompozitorlik ta’limida keng qo‘llanilishi bugungi musiqiy ta’lim strategiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyot

1. Akbarov I. A. *Musiqa lug‘ati*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. A. *Musiqa lug‘ati*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1997.
3. *O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi* (O‘zME). 1-jild. Toshkent, 2000.
4. Rajabov I. *Maqomlar*. Toshkent: [nashriyot ko‘rsatilmagan], 2006.
5. Sposobin I. V. *Musiqa shakli* / ruscha oltinchi nashrga muvofiq o‘zbekcha birinchi nashr; tarj. N. Umarov; maxsus red. T. B. G‘ofurbekov. Toshkent: O‘qituvchi, 1982.

6. Matyakubova S. K. *Musiqiy asarlar tahlili*. Toshkent, 2023.
7. Matyakubova S. K. *Maqom solfedjiosi. 1-qism*. Toshkent, 2021.
8. Matyakubova S. K. *Maqom solfedjiosi. 2-qism*. Toshkent, 2021.
9. Rajabiy Y. *Shashmaqom. III: Navo*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.

References

1. Akbarov, I. *Musiqa lug‘ati* [Music Dictionary]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. (in Uzbek)
2. Akbarov, I. *Musiqa lug‘ati* [Music Dictionary]. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1997. (in Uzbek)
3. *O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (O‘zME). 1-jild* [Uzbekistan National Encyclopedia, Vol. 1]. Tashkent, 2000. (in Uzbek)
4. Rajabov, I. *Maqomlar* [The Maqoms]. Tashkent: [publisher not specified], 2006. (in Uzbek)
5. Sposobin, I. *Musiqa shakli* [Musical Form]. Adapted from the sixth Russian edition; translated by N. Umarov; edited by T. B. G‘ofurbekov. Tashkent: O‘qituvchi, 1982. (in Uzbek)
6. Matyakubova, S. *Musiqiy asarlar tahlili* [Analysis of Musical Works]. Tashkent, 2023. (in Uzbek)
7. Matyakubova, S. *Maqom solfedjiosi. 1-qism* [Maqom Solfeggio, Part 1]. Tashkent, 2021. (in Uzbek)
8. Matyakubova, S. *Maqom solfedjiosi. 2-qism* [Maqom Solfeggio, Part 2]. Tashkent, 2021. (in Uzbek)
9. Rajabiy, Yu. *Shashmaqom. III: Navo* [Shashmaqom. Vol. III: Navo]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970. (in Uzbek)